UO‘K: 94 (575.092)

AFG‘ONISTON SIYOSIY BOSHQARUV TUZILMASIDA AFG‘ON O‘ZBEKLARINING ROLI: TARIXIY TAHLIL (XX asrning ikkinchi yarmi)

X.E. Norqo‘chqarov

Maqolada XX asr 50-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davrda Afg‘oniston hukumati boshqaruv tuzilmasida mamlakatda yashovchi o‘zbek millati vakillarining roli haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mahalliy va muhojir afg‘on o‘zbeklari orasidan bu davrda yetishib chiqqan vazir, hokim, elchi, sudya, harbiylar faoliyati o‘rganilgan. Ularning turli siyosiy birlashma, partiya va jamiyatlar, oliy vakillik organlaridagi ishtiroki atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Afg‘oniston, afg‘on o‘zbeklari, milliy o‘zlikni anglash, Loyi Jirg‘a, AXDP, AIT, AFIT, siyosiy partiya va jamiyatlar, diniy fundamentalistik partiyalar, Inqilobiy Kengash, AMIH.*

В статье представлена информация о роли представителей узбекской национальности, проживающих в стране, в структуре правительства Афганистана в период с 1950-х по 1990-е годы. Изучена деятельность министров, хокимов, послов, судей, военных, выросших среди местных и иммигрантов афганских узбеков этого периода. Подробно проанализировано их участие в различных политических объединениях, партиях и обществах, высших представительных органах.

Ключевые слова: *Афганистан, афганские узбеки, сознание национальной самобытности, Лойи Джирга, НДПА, РОА, РОТА, политические партии и общества, религиозные фундаменталистские партии, Революционный совет, НИДА.*

Kirish

Afg‘oniston tabiiy-geografik jihatdan turli etnik areallar kesishgan hamda ko‘plab madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan mintaqadir. Shu sababli ham mamlakat murakkab etnik va etnolingvistik xususiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, Afg‘onistonda 30 dan ortiq til va lahjalarda so‘zlashuvchi 20 dan ortiq millat va elatlar [1. B. 22–29], ba’zi manbalarda aytilishicha, 50 dan ortiq millat va elat, kichik guruhlar istiqomat qiladi [2. B. 9]. Mamlakatdagi polietniklikning yana bir muhim jihati – aytib o‘tilgan 20 dan ortiq millatning aksari Afg‘onistondagi umumiy aholi nufuzining salmoqli qismini tashkil etishidir. Xususan, pushtunlar, tojiklar, o‘zbeklar, hazoralar boshqa etnik guruhlarga nisbatan son jihatdan ancha ko‘p. Mazkur millatlarning har biri o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot tajribasiga, madaniyat va urf-odatga ega bo‘lib, Afg‘oniston tarixi va bugungi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida ularining muhim o‘rni va ta’siri mavjud. Mamlakat aholisining ijtimoiy-madaniy hayoti, demografiyasi haqida ma’lum bilimlarga ega bo‘lish, ularning davlat shakllanishi va siyosatining jamoaviy ustunligini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, pushtunlarning mamlakat aholisi tarkibidagi ulushi 42 %, tojiklar 27 %, o‘zbeklar 9 %, hazoralar ham 9 % ni tashkil etib, boshqa kichik jamoalar umumiy hisobda taxminan 13 % ni tashkil etadi [3. B. 10]. Bunday etnik xilmaxillik sharoitida har bir etnik jamoa o‘z milliylik xususiyatlarini saqlab qolish harakati bilan birga mamlakat boshqaruv bo‘g‘inidagi nufuzini oshirish, hukumatda doimiy vakillariga ega bo‘lish choralarini ko‘rdilar. Aynan shu jihat bugun biz tadqiq etayotgan Afg‘onistonda yashovchi o‘zbeklarga ham xosdir.

Material va usullar

Afg‘onistondagi o‘zbeklarning mamlakat boshqaruv tuzilmasidagi ishtiroki masalasiga bag‘ishlangan o‘zbek tilida alohida tadqiqot ishi mavjud bo‘lmasa-da, bu haqdagi ma’lumotlarni bir qancha olimlar asarlari va tadqiqotlarida qisman uchratish mumkin. Jumladan, Sh.Hayitovning xorijdagi o‘zbeklar tarixi haqidagi monografiyasida, sharqshunoslar X.Alimova, X.Xashimbekov, K.Abdullayev, Y.Laletin, Y.Bosin tadqiqotlarida ko‘ramiz.

Maqolada qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar

Tarixan davlatchilik va hokimiyat boshqaruv an'analari singgan o'zbek millati vakillari asosan pushtunlar boshqaruviga asoslangan Afg'onistonda ham hokimiyat siyosiy boshqaruv tuzilmasida faol bo'lgan. Afg'onistonning zamonaviy davlatchilik tarixida mamlakatda yashovchi o'zbek millati vakillari bo'lgan vazirlar, hokimlar, elchi, sudya, yuqori martaba, unvonga ega harbiylar hamda turli siyosiy birlashmalar, partiya va jamiyatlar, oliy vakillik organlari (Loyi Jirg'a) vakillari, deputatlar faoliyat olib borishgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Afg'onistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar jarayoni bilan birga mamlakat aholisi o'rtasida liberal-demokratik qarashlar ham shakllana boshladi. Jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida ochiq va yashirin shaklda uyushma va jamiyatlar, partiya va tashkilotlar paydo bo'lib, ushbu jarayonlarning umumiy natijasi mahalliy aholining asta-sekin siyosiylashuviga olib keldi. Bu jarayonlarning ta'siri Shimoliy Afg'oniston viloyatlarida yashovchi o'zbek, tojik, turkman millatlarining asosan shaharlarda istiqomat qiluvchi tadbirkor va ziyolilari, maktab va madrasalarning yuqori sinf o'quvchilari orasida sezilarli darajada edi. Qishloqlar va chekka hududlarda yashovchi aholi o'rtasida siyosiylashuv jarayoni faqat XX asrning 70-yillari oxirida sezila boshladi [4. B. 30]. Yangi islohotlar talabi sifatida 1964-yil Afg'onistonda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Bu davrga kelib, mamlakatdagi boshqa millat vakillari uchun ham ma'lum erkinliklar berildi. Jumladan, o'zbek va turkman tillarida radioeshittirishlar yo'lga qo'yildi, o'zbek yigitlari harbiy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilina boshladi. Shuningdek, 13-parlament (Loyi Jirg'a) a'zolari ichida o'zbeklar ham bo'lib, ular orasida muhojir o'zbeklardan Said Abdurahmon Mahdum millat vakili bo'lib tayinlangan edi [5. B. 14]. Mamlakat siyosiy hayotida birinchi marta mahalliy o'zbek, tojik va turkmanlar 1969-yilgi navbatdagi parlament saylovlarida faol ishtirok etishgan. XX asrning 60–70-yillari boshlarida Shimoliy Afg'onistondagi aholining deyarli barcha qatlamlari ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalovchi bo'limlar va mahalliy uyushmalar mavjud edi. Bu davrda mintaqada yangi tashkil etilgan siyosiy partiyalar va tashkilotlar milliy tarkibiga ko'ra emas, balki ijtimoiy tamoyillarga muvofiq tashkil etilgan. Masalan, mintaqaning shahar markazlarida musulmon ilohiyotchilarining ulamo va diniy maktab o'quvchilari asosan o'ng islom fundamentalistlari tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan. Tadbirkorlar va ziyolilarning katta qismi burjua-liberal partiyalarga birlashdilar. O'rta qatlam vakillari esa so'l demokratik partiya va tashkilotlarga a'zo bo'lganlar. Qishloq aholisining siyosiy qarashlaridagi asosiy g'oyalar va yo'nalishlar avvalo mahalliy an'anaviy rahbarlar: yirik yer egalari, qabila va urug' oqsoqollari, musulmon ilohiyotchilari va ruhoniylari ta'siri bilan bog'liq edi.

Ma'lumki, 1977-yil boshida qabul qilingan Afg'oniston Respublikasi Konstitutsiyasi (40-moddasi)ga asosan prezident Muhammad Dovud mamlakatda bir partiyali tizimni o'rnatdi. Biroq Milliy Inqilob partiyasi 1978-yil aprel oyidagi voqealarga qadar mamlakat shimolidagi o'z mahalliy bo'limlarini yaratishga muvaffaq bo'la olmadi. Shuningdek, bu davrda boshqa diniy, sotsialistik va so'l demokratik yo'nalishdagi siyosiy partiya va tashkilotlar ham tarqalib ketmasdan, yashirin tarzda faoliyat olib borishdi.

Mamlakatda 1978-yil aprelida yuz bergan voqealardan so'ng qonuniy faoliyat yuritadigan va hukmron partiyaga aylangan Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi ichida ham "Xalq" va "Parcham" fraksiyalarining doimiy kurashi mavjud edi. Shunga qaramasdan, partiya Shimoliy Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan shahar markazlarida o'z mavqeyini birmuncha mustahkamladi. Balx, Juzjon, Qunduz, Samangon va Faryob viloyatlarida 1979–1986-yillar davomida AXDP a'zolarining umumiy soni 2,2 mingdan 10 ming kishiga ko'paygan (1986-yilgi ma'lumot). Ayrim viloyatlardagi (masalan, Juzjon) mahalliy AXDP tashkilotlaridagi o'zbeklarning ulushi 49,5 % ga yetdi, taqqoslash uchun: tojiklar – 27,4 %, pushtunlar – 15,9 % ni tashkil etgan.

Biroq AXDP va uning rahbarligida ishlaydigan jamoat tashkilotlari aslida faqat Shimoliy Afg'onistonning shahar markazlarida faoliyat yuritgan. Qishloq joylarda uning ta'siri juda zayf edi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, AXDP 1978-yil aprel voqealari arafasida Shimoliy Afg'onistonda faoliyat ko'rsatgan eng yirik so'l-demokratik tashkilot edi. U, albatta, so'l-demokratik yo'nalishning yagona tashkiloti emas edi. Shimoliy Afg'onistonda XX asr 60-yillari oxiridan boshlab demokratik qarashlarga ega, mintaqaning tub aholisi huquqlarini himoya qiluvchi partiya va jamiyatlar ham tashkil etilayotgan edi.

Mamalakatdagi etnik va mahalliy ozchilik manfaatlarini himoya qiluvchi so'l-demokratik partiya va tashkilotlarning eng mashhuri "Afg'oniston inqilobiy tashkiloti" (AIT) bo'lib, uni ba'zi tadqiqotchilar "Milliy mazlumlar" ("Setam-i milliy") partiyasi deb atashadi. AITning haqiqiy asoschisi AXDP asoschilaridan biri – Muhammad Tohir Badaxshiy bo'lib, 1968-yil boshida u AXDP dan chiqdi va 1968-yilning iyul-avgust oylarida Kobulda AITning ta'sis konferensiyasini o'tkazdi, unda 21 nafar a'zo ishtirok etdi. AITning mafkuraviy platformasi (g'oyaviy asosi) marksizm-leninizm, deb

e’lon qilindi. Asosiy maqsad esa etnik-milliy asosda avtonom viloyatlar (provinsiyalar) federatsiyasini yaratish orqali Afg‘onistonda milliy masalani demokratik yo‘l bilan hal qilish edi. AIT rahbarlari orasida o‘zbeklar ham bor edi. Ulardan biri Tahor viloyatidan kelgan o‘zbek Muhammad Hakim Sodiqiy ushbu viloyatdan parlament a’zosi bo‘lib, 60-yillarning oxiridan boshlab Tohir Badaxshiy bilan hamkorlik qilgan. 1987-yil noyabrda AIT AXDP bilan hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzoladi. XX asr 80-yillari oxirida M.H.Sodiqiy Tahor viloyatida Milliy Front Kengashining raisi edi.

1976-yil bahorida radikal so‘l pozitsiyalarni egallagan “Afg‘onistonning so‘l fidoiy ishchilari tashkiloti” (AFIT) AITdan ajralib chiqgan edi. Uning rahbarlaridan biri yuqorida tilga olingan M.H.Sodiqiyning ukasi G‘ulom Saxiy edi. Dastlab AFIT asosan Tahor viloyatida harakat qildi, keyin o‘z faoliyatini Balx, Qunduz, Faryob, Badaxshon va Juzjonda kengaytirdi. 1984-yilga kelib, 2 mingga yaqin faol a’zosi bo‘lgan AFIT AXDP bilan birlashdi.

Shimoliy Afg‘onistonda faol bo‘lgan yana bir so‘l demokratik tashkilot – “Mehnat guruhi” (“Goruh-i kor”)ning rahbarlari va a’zolari orasida mahalliy o‘zbeklar (shuningdek, tojiklar, turkmanlar va hazoralar) ham bo‘lgan. AXDPning bir necha a’zosi tomonidan yaratilgan “Mehnat guruhi” asoschilari orasida Omonulloh Ustovar va Fayzulloh Alburs ham bor edi.

Omonulloh Ustovar (Ustvor) 1946-yilda tug‘ilgan, millati – o‘zbek. Kobul Politexnika institutida va Ruminiyada o‘qigan. 1978-yilda “Mehnat guruhi” uyushmasi birinchi kotibi bo‘lgan. 1981-yildan keyin AXDP Markaziy Komiteti tashkiloti boshqaruv bo‘limi instruktori. 1990-yilda Afg‘oniston Respublikasining Mo‘g‘ulistondagi elchisi etib tayinlangan.

Fayzulloh Alburs (Albarz) – andxo‘ylik o‘zbek. 1980-yildan keyin u Maymana gubernatori bo‘ldi. AXDPning Faryob viloyati hududiy Komiteti rahbari, Afg‘oniston Respublikasi dehqon kooperativlari ittifoqi raisining o‘rinbosari lavozimlarida faoliyat olib borgan.

1973–1974-yillarda “Mehnat guruhi”, asosan, Balx, Juzjon, Faryob, shuningdek, Kobul viloyatlarida faoliyat ko‘rsatgan. Uning a’zolari orasida pushtun millatchiligiga qarshi kayfiyatdagi o‘zbek va tojik yoshlarining inqilobiy fikrli vakillari, mahalliy ziyolilar ko‘pchilikni tashkil qilgan. 1979-yilga kelib, “Mehnat guruhi” saflarida 3 mingga yaqin oddiy aholi vakillari va 600 dan ortiq harbiy xizmatchi bor edi. 1981-yilda “Mehnat guruhi” AXDP bilan birlashdi.

XX asrning 60-70-yillarida Shimoiy Afg‘onistonda AXDPning “Parcham” fraksiyasidan ajralib chiqqan “Mehnatkash xalq” (“Xalqi korgar”) so‘l demokratik tashkiloti ham keng ta’sirga ega bo‘ldi. Uning asoschisi Abdulhakim Sha’riy Juzjoniy bo‘lib, rahbarlaridan yana biri Shukurulloh Shaxpur edi. Keyinchlik “Mehnatkash xalq” tashkiloti “Xalq” fraksiyasiga qo‘shildi.

Abdulhakim Sha’riy Juzjoniy 1934-yilda Juzjon viloyatining Saripul shaharchasida tug‘ilgan. Shoir, millati – o‘zbek. Sayyidlar avlodidan bo‘lib, Pahmondagi madrasani tamomlagan. 1959-yilda Kobul universitetining geologiya fakultetini tugatgan. Shuningdek, “Anis” va “Isloh” gazetalarining mas’ul muharriri bo‘lgan. AXDP I qurultoyi ishtirokchisi. 1978-yil aprelidan keyin tuzilgan AXDP birinchi hukumatida yagona o‘zbek bo‘lgan. Afg‘onistonda bosh prokuror va Adliya vaziri lavozimlarida faoliyat olib borgan. 1980–1986-yillarda qamoqda bo‘lgan. 1987-yilda ozod qilingan. U 1990-yilda Afg‘oniston Respublikasi Oliy Sudi raisining o‘rinbosari lavozimini egallagan.

Shukurulloh Shaxpur millati o‘zbek, mutaxassisligi iqtisodchi bo‘lgan. AXDP I qurultoyi ishtirokchisi. O‘tgan asrning 70-yillari boshlarida partiyadan ketishga majbur bo‘ldi. 80-yillarning boshlarida o‘ldirilgan [4. B. 31–40].

Said Ikrom Paygir Afg‘oniston hukumatida qochoqlar ishlari bo‘yicha vazir, Suhrobiy Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan birdamlik komiteti raisi movuni sifatida faoliyat yuritganlar [6. B.112].

Afg‘onistonning shimoliy hududlarida 60–70-yillarning boshlarida tashkil etilgan o‘ng va o‘ta o‘ng islomiy partiyalar, tashkilotlarning faoliyati 1979-yilga kelib nihoyatda kuchaydi. XX asrning 80-yillari boshlarida Juzjon viloyatining o‘zida qurolli tuzilmalar tarkibidagi a’zolar soni olti ming kishiga yetdi. Bu davrda Shimoliy Afg‘onistonning o‘zbeklar yashaydigan hududlarida diniy fundamentalistik asosdagi “Afg‘oniston Islom jamiyati” (rahbari – Burhoniddin Rabboniy), “Afg‘oniston Islom partiyasi” (rahbari – Gulbiddin Hikmatyor) va “Islom inqilobiy harakati” (rahbari – N.M.Muahammadiy) kabi partiya va jamiyatlar eng katta ta’sirga ega edi.

Yer islohoti davrida yo‘l qo‘yilgan xatolar, viloyatlarning qishloq joylarida AXDP bo‘linmalarining katta ta’sirga ega emasligi mamlakat shimolidagi o‘zbek dehqonlarining ham katta qismi an’anaviy mahalliy rahbarlar ta’siriga tushib qolishiga olib keldi. Masalan, Qunduz viloyatida fundamentalistik qarashga ega “Afg‘oniston Islom partiyasi” va “Afg‘oniston Islom jamiyati” tomonidan yaratilgan qurolli tuzilma vakillarining 84 % i kambag‘al dehqonlardan iborat edi. Qo‘mondonlarning to‘rtdan uch qismi (75 % i) esa yirik yer egalari edi. Ushbu jamiyatlar tarkibida ham mahalliy tojiklar, pushtunlar, turkmanlar va boshqa millatlar bilan birga o‘zbeklar ham bor edi.

XX asr 80-yillari boshlarida AXDPga muxolifatda bo‘lgan boshqa liberal qarashdagi “Afg‘on millati” va yuqorida tilga olingan ba’zi so‘l qanot radikal siyosiy partiyalar, tashkilotlar rahbarlari faqat viloyatning shahar markazlarida qat’iy maxfiylik sharoitida harakat qildilar. 1986–1989-yillarida ularning ba’zilari qonuniy harakat qila boshladi.

Shimoliy Afg‘oniston mintaqasidagi o‘zbeklar va boshqa mahalliy millat vakillarining siyosiy jarayonlarga tortilishi milliy o‘zlikni anglash jarayonining bosqichma-bosqich kuchayishini yuzaga keltirdi [4. B. 31–40].

XX asrda ko‘p millatli afg‘on jamiyatining Afg‘oniston davlat boshqaruviga ta‘siri masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan Y.B.Bosin o‘zbeklarning roli haqida ham bir qancha ma’lumotlar keltiradi. Jumladan, AXDPning haqiqiy milliy siyosati mamlakatdagi umumiy siyosiy vaziyatni aks ettirdi. Dastlab, Afg‘oniston Demokratik Respublikasi Inqilobiy Kengashining 2-dekretiga asosan tuzilgan hukumatdagi vazirlik lavozimlari “Xalq” va “Parcham” fraksiyalari vakillari (11 ga 10 nisbatda) o‘rtasida bo‘lingan. Ulardan 11 nafari pushtun, 6 nafari tojik, 2 nafari hazora, 2 nafari o‘zbeklar edi. Vazirlar Mahkamasida etnik ozchilikning vakilligi inqilobdan oldingi ma’muriyatlarga nisbatan sezilarli darajada oshdi, bu fakt etnik ozchilik foydasiga maxsus chora ko‘rishdan ko‘ra, ko‘proq fraksiyalar o‘rtasidagi siyosiy murosa natijasi edi [7. B. 133–150].

XX asrning 20-yillarida otasi Farg‘onadan muhojirlikka ketgan, 1936-yil 16-dekabrda Afg‘onistonning Andxo‘y shahrida tavallud topgan Muhammadxon Jalol esa Afg‘oniston hukumatida moliya vaziri o‘rinbosari va moliya vaziri (1971–1974), keynchalik Babrak Karmalning birinchi hukumatida (1979–1986) savdo vaziri sifatida faoliyat olib borgan [6. B. 115–116].

Afg‘onistondagi o‘zbek milliy harbiy qismlari qo‘mondoni general Abdulmalik Shamsiddin ham muhojir o‘zbeklardan birining farzandidir [6. B. 118].

1985-yil 23-noyabrda AXDP Markaziy Qo‘mitasining 16-plenumi bo‘lib o‘tdi. Unda partiyaning kengaytirilgan tarkibi tasdiqlandi. Qabul qilingan qarorlar asosida Inqilobiy Kengash tarkibi prezident Babrak Karmal tashabbusi bilan 67 kishidan 146 a’zoga ko‘paydi. Mamlakatdagi milliy ozchilik barcha o‘rinlarning yarmini egalladi. Inqilobiy Kengashning 9 kishidan iborat (prezident B.Karmal bilan birgalikda) rahbarlari tarkibidagi ikki nafar a’zosi pushtun bo‘lmagan milliy ozchilik vakillaridan bo‘lib, jumladan, Hoji Nizomiddin o‘zbek, Abdulqodir esa tojik millati vakillari edi.

1986-yil yanvar holatiga ko‘ra, AXDP a’zolarining umumiy soni 150 ming nafarni tashkil etib, uning milliy tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarda pushtunlar – 43 % (64500 nafar atrofida), tojiklar – 44 % (66000 nafar atrofida), o‘zbeklar – 7 % (10500 nafar atrofida), hazoralar – 3 % (4500 nafar atrofida), turkmanlar – 1 % (1500 nafar atrofida), balujilar – 0,4 % (600 nafar atrofida), nuristonliklar – 0,2 % (300 nafar atrofida) va boshqa xalqlar – 1 % ni (1500 nafar atrofida) tashkil etgan [7. B. 133–150]. Manbalarga ko‘ra, umrining bir qismini Afg‘onistonda muhojirlikda o‘tkazgan Amir Sayid Olimxonning nabiralaridan biri Sayid Temur ham Afg‘oniston Xalq demokratik partiyasi a’zosi bo‘lganligi, Kiyev davlat universitetining falsafa fakultetini tamomlagani haqida ma’lumotlar keltiriladi [8. B. 475].

1986-yil holatiga ko‘ra, ADR Inqilobiy Kengashi tarkibi: 76 pushtun (52 %), 43 tojik (29,5 %), 12 o‘zbek (8,2 %), 8 hazora (5,5 %), 3 turkman (2 %), 1 beluj, 1 nuristonlik, 1 shimoli-g‘arbiy hindistonlik va 1 nafar turkdan iborat bo‘lgan [7. B. 133–150].

Afg‘onistondagi etnik siyosiylashuv jarayonlarining rivojlanishi va chuqurlashishida (shu jumladan, o‘zbeklar yashaydigan shimoliy viloyatlarda ham), shubhasiz, 1988-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan Afg‘oniston Respublikasi Milliy Kengashiga saylovlar va shu vaqtda o‘tkazilgan saylov kompaniyasi katta ta’sirga ega bo‘ldi. Saylov natijasiga ko‘ra, Xalq Jirg‘asiga 184 nafar deputat (ularning 9,9 % i o‘zbeklar), senatga 115 nafar (ulardan 9 % i o‘zbeklar) saylandi.

1988-yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan Milliy Kengash sessiyasida o‘zbek deputatlari AXDP rahbariyatining “xalqni undan uzoqlashtirgan” milliy masala bo‘yicha siyosati prinsiplarini keskin tanqid qildilar, mamlakat qurolli kuchlari va uning qo‘mondonlik shtabiga o‘zbek (shuningdek, turkman) vakillarini ham jalb qilib, hukumat tarkibiga kiritishni talab qildilar.

Afg‘on armiyasida ham siyosiylashuv jarayoni ro‘y beradi. Masalan, Juzjon viloyatida tuzilgan 53-piyodalar diviziyasining kadrlari (shaxsiy tarkibi) asosan o‘zbeklardan iborat edi. Buning sababini mazkur viloyatda aholining katta qismi o‘zbeklar ekanligi bilangina izohlab bo‘lmaydi, boshqa ijtimoiy-siyosiy sabablar ham mavjud edi. Ushbu diviziyaga juzjonlik o‘zbek, Afg‘oniston Respublikasi Qahramoni, o‘sha vaqtda general-leytenant (keyinchalik marshal) Abdulrashid Do‘stum qo‘mondonlik qildi [4. B. 38–39].

Tadqiqotchi Y.P.Laletinning ta’kidlashicha, XX asrning 70-yillariga kelib, Afg‘oniston Qurolli kuchlarining turli harbiy lavozimlariga pushtunlardan boshqa millat vakillari ham tayinlana boshladi. Jumladan, generallar va katta ofitserlarning 20 % i tojiklar va 10 % i boshqa millat vakillari bo‘lgan, kichik ofitserlarning 35 %i tojiklar, 10 %i o‘zbeklar, yana 10 %i boshqa millat vakillari bo‘lishgan. AXDP XII umumpartiyaviy konferensiyasi (1987-yil 18–20-oktyabr) oliy harbiy ofitserlar va siyosiy kadrlar milliy tarki-

bining 1982-yildagi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ko‘ra: pushtunlar – 55 %, tojiklar – 35 %, hazoralar – 1,6 %, o‘zbeklar – 2,2 % va boshqa millat vakillari – 6,2 % ni tashkil etgan [9. B. 21–22].

Sharqshunos X.Xashimbekovning ta’kidlashicha: “Shimoliy Afg‘oniston mintaqasi (masalan, Faryob viloyati)da tashkil etilgan qurolli militsiya jamoalari a’zolarida siyosiy-partiyaviy qarashlar bilan birga, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari kuchli shakllangan o‘zbek otryadlari ham mavjud edi” [4. B. 38].

1987-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, ADR Ichki ishlar vazirligining bo‘lim va bo‘linmalarida xizmat qilayotgan zobit va serjantlarning etno-milliy tarkibi quyidagicha bo‘lgan: pushtunlar – 46,9 %, tojiklar – 40,99 %, o‘zbeklar – 5,72 %, hazoralar – 4,48 %, turkmanlar – 1,11 %, balujlar – 0,54 % va boshqa millat vakillari 0,56 % ni tashkil etgan [7. B. 149–150].

Afg‘onistondagi eng mashhur armiya qo‘mondonlaridan biri hamda afg‘on o‘zbeklari yetakchisi Abdulrashid Do‘stum 1953-yilda Juzjon viloyati Shibirg‘on uyezdi Xo‘jaduxuk qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. 1978-yil aprelgacha Shibirg‘ondagi neftni qayta ishlash zavodida ishladi. 1978-yil aprelidan keyin AXDPga qabul qilindi. AXDPning ikkinchi qurultoyida Markaziy qo‘mita a’zoligiga saylandi. 1980-yilda Leningraddagi harbiy akademiyada o‘qish va Toshkentdagi uch oylik harbiy tayyorgarlik kurslaridan so‘ng Afg‘onistonga qaytgan Do‘stum mamlakat hukumatiga bo‘ysunadigan xavfsizlik idorasida ish boshlaydi. 1983-yilda Abdulrashid Do‘stum mamlakat shimolidagi Juzjon viloyatida asosan mahalliy o‘zbeklardan iborat harbiy batalyonni boshqardi. Afg‘on hukumatining qurolli islomiy muholifati bilan kurashlarda faol qatnashdi. Qandahor hududidagi g‘alabali janglardan hamda sobiq Mudofaa vaziri general Sh.Tanay qo‘zg‘alonini bostirishdagi faol ishtirokidan so‘ng “Qahramon” unvonini oldi va Afg‘onistonning eng nufuzli qo‘mondonlaridan biriga aylandi. 1988-yilda uning harbiy brigadasi 53-piyoda diviziyasi maqomini oldi. 1992-yil yanvarda Najibullodan ajralib, Ahmad Shoh Mas’ud bilan koalitsiya (ittifoq) tuzdi. Prezident Sibhatulla Mujaddadiy farmoni bilan armiya generali unvoniga sazovor bo‘ldi. Abdulrashid Do‘stum boshchiligida 1992-yilda “Afg‘oniston Milliy islom harakati” (AMIH) (“Junbishi Milli-ye Islomi-ye Afg‘oniston”) partiyasi tashkil topdi. 1993-yilda Eronda va boshqa ba’zi mamlakatlarda AMIHning vakolatxonalari ochildi. Shuningdek, Mozori Sharifda “Afg‘oniston Milliy islomiy harakati” Oliy kengashining “Nida-i islom” gazetasi o‘zbek, dariy va pashtu tillarida chop etildi [4. B. 38–39; 10. B. 123]. Tadqiqotchi K.Abdullayevning tahlillariga ko‘ra, “Junbish” o‘zbek yoki turkiy millatchilikka asoslangan partiya emas, balki o‘zbeklar “alohida mavqeni” egallagan mamlakat shimolidagi barcha xalqlarning koalitsiyasi edi. Partiya tashkil etilgan 1992-yilda o‘zbeklar “Junbish”ning boshqaruv organida atigi 14 % ni tashkil qilgan. Harakat yetakchisi Abdulrashid Do‘stum hech vaqt o‘zga millat vakillarini ta’qib ostiga olmagan. Partiya o‘z saflariga iloji boricha mintaqada yashovchi turli millat vakillarini jalb qilishga intilgan. Ular dasturidagi asosiy milliy element mamlakatda yagona millat (pushtunlar) boshqaruvidan voz kechib, boshqa xalqlarning ham manfaatlarini himoya qiluvchi polietnik hukumatni yaratish uchun kurash bo‘lgan [8. B. 474]. Abdulrashid Do‘stum so‘nggi o‘ttiz yil ichida Afg‘oniston siyosiy tuzilmasida eng mashhur o‘zbek millati vakillaridan biri va yetakchisi sifatida tanildi. XXI asrda bir necha marta Afg‘oniston prezidentlik saylovlarida o‘z nomzodini qo‘ydi, mamlakatda Oliy bosh qo‘mondonlik va vitse-prezidentlik lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2020-yilda Afg‘onistonda marshal unvonini olgan birinchi o‘zbek bo‘ldi [11].

XX asrning 80-yillarida sovet qo‘shinlariga qarshi kurashga rahbarlik qilganlardan biri Ozodbek Karimiydir. U muhojir o‘zbeklardan bo‘lib, asli 1952-yilda Pokiston (Islomobod)da tug‘ilgan. Ayrim manbalarda Ozodbek Karimiy ona tomondan Qo‘qon xoni Xudoyorxonning, boshqa manbalarda Nasriddinxonning avlodlaridan ekani aytiladi. Ozodbek afg‘on turkmanlari yetakchilaridan biri Abdulkarim Mahdum bilan birgalikda Shimoliy Afg‘onistonda yangi birlashma – “Ittihodiya-i islom-i viloyat-i samt-i shimol-i Afg‘oniston” (“Shimoliy Afg‘oniston viloyatlari islom ittifoqi”) partiyasini tashkil etgan. Bu partiya a’zolarining aksariyatini o‘zbek va turkmanlar tashkil etib, Afg‘onistondagi hazoralar (mo‘g‘ullar avlodi), tatarlar, aymoqlar kabi asosan turkiy millat vakillarini partiya tarkibiga jalb etishga harakat qilishgan. Partiya asoschilaridan Abdulkarim Mahdum 1982-yil o‘rtalarida Turkiyaga chiqib ketgan. Jamiyat tarkibida Ozodbekdan tashqari bir qancha turkiy mujohid qo‘mondonlar bor edi. Jumladan, Mavlavi Abdulquddus, tatar – Mavlavi Islom, mashhur qo‘rboshi Ibrohimbek Laqayning jiyani – Xaluddin Qunduzda, Ayitmurod komandir Bag‘londa, Ashur Pahlavon (turkman) Juzjonda o‘z qurolli guruhlari bilan sovet armiyasiga qarshi harakat qilishgan. Ozodbek 1989-yil sovet qo‘shinlari Afg‘onistonni tark etgandan so‘ng qulatilgan Najibullo rejimidan keyin (1992-yil) tashkil etilgan mujohidlar hukumatini ham tan olmaydi. Ko‘p o‘tmay Ozodbek partiyasining ko‘plab qo‘mondonlari va a’zolari Abdulrashid Do‘stum tomonidan tashkil etilgan (1992-yil) “Afg‘oniston Milliy islom harakati” tarkibiga o‘tib ketadi. 1997-yil Mozori Sharif shahrida sirli vertolyot halokati natijasida Ozodbek halok bo‘ldi.

“Shimoliy Afg‘oniston viloyatlari islom ittifoqi” partiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga bir necha sabablarni keltirish mumkin. Birinchidan, partiya asoschisi Ozodbek Karimiy garchi o‘zbek millati vakili bo‘lsa-da, u Pokiston fuqarosi bo‘lib, ushbu mamlakatning Xalqaro razvedka tashkiloti (ISI) tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi (ISI vakili sifatida ham qaralgan), Pokiston va Saudiya Arabistoni (AQSh ko‘magi bilan) tomonidan moliyalashtirilgani ma’lum edi. Shuningdek, jamiyat jangchilarining deyarli barchasi Pokistondagi lagerlarda harbiy va g‘oyaviy tayyorgarlikdan o‘tgan edi. Ikkinchidan, jamiyat tarkibiga faqat turkiy millat vakillarining jalb etilishi hamda Turkistonni ozod qilish g‘oyasi nafaqat sovet hukumatini, balki Afg‘onistondagi pushtunlar, shimoldagi boshqa forsiband xalqlarni ham xavotirga solib, ularning ko‘magidan mahrum qilgan edi [8. B. 470–475].

Xulosa

O‘zbeklar O‘zbekistondan tashqarida eng ko‘p Afg‘oniston hududida yashaydi. Tahlil etilgan yarim asrlik tarixiy davr mobaynida Afg‘oniston davlat boshqaruv tuzilmasida ko‘plab o‘zbek millati vakillari faoliyat olib borgan. Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Afg‘onistonda yashovchi o‘zbeklarning siyosiylashuv jarayonlari XX asrning 60-yillaridan boshlab ancha faollashgan. 70-yillar oxiri va 80-yillarda esa mamlakatdagi siyosiy jarayonlar va hokimiyat boshqaruv tizimining muhim va faol qismiga aylangan. Bu boradagi tahlillarni Afg‘onistonning yangi tarixiy davri misolida ham davom ettirish mumkin. XX asrning oxiri va, ayniqsa, XXI asrning ikki dekadasida afg‘on o‘zbeklari, barcha sohalarda bo‘lgani kabi, siyosiy jarayonlarda ham faollashdi. Bu jarayonlarning tarixiy tahlili esa keyingi ishlarimizning asosi hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. *Alimova X.* Afg‘oniston konstitutsiyalarida davlat tili maqomi. // O‘zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020. – B. 22–29.

2. *Irfan Ali Shah*. Afghan ethnic and social politics depicted in “The Kite Runner”. A dissertation submitted to the University of Peshawar, Pakistan in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. – Area study Centre (Russia, China and Central Asia) University of Peshawar. – Pakistan, 2017. – 278 p.

3. *Hamidullah Qeyam*. Etnicization of politcs in Afghanistan. Presented to the Faculty of the Graduate School of The University of Texas at Arlington in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Sociology. – Arlington: The University of Texas, 2012. – 64 p.

4. *Хашимбеков Х*. Узбеки Северного Афганистана. – Москва: Институт востоковедения РАН, 1994. – 56 с.

5. *Ismoilov A., Toshqin A*. Afg‘onistondagi turkiy tillar vaziyatiga doir // Sharq mash’ali, 2005. – № 1. – B. 12–16.

6. *Hayitov Sh.A.* O‘zbek muhojirligi tarixi (1917–1991 yy.). – Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2008. – 208 b.

7. *Босин Ю.В.* Афганистан: Полиэтническое общество и государственная власть в историческом контексте. – Москва: Гуманитарий, 2002. – 232 с.

8. *Абдуллаев К.* От Синьцзяня до Хорасана. Из истории среднеазиатской эмиграции XX века. – Душанбе: Ирфон, 2009. – 572 с.

9. *Лалетин Ю.П.* Ресурсный потенциал Северного Афганистана, консолидация этнических меньшинств и укрепление элит в этом регионе. – Москва, 2000. – 43 с.

10. *Шарипов У.З., Хашимбеков Х.* Исторический и современный аспекты социального и политического положения афганских узбеков. // Афганистан–2010. Политические и экономические реалии современного Афганистана в условиях геостратегической экспансии Запада. Сборник статей. – Москва, 2010. – С. 103–146.

11. Afg‘oniston Qahramoni, etnik o‘zbeklar yetakchisi va endilikda marshal. Abdulrashid Do‘stum kim? // [Internet manba]. URL: https://kun.uz/uz/news/2020/05/24/afgoniston-qahramoni-etnik-ozbeklar-yetakchisi-va-endilikda-marshal-general-dostum-kim // [Murojaat etilgan sana: 30.04.2023]

THE ROLE OF AFGHAN UZBEKS IN THE POLITICAL GOVERNMENT STRUCTURE OF AFGHANISTAN: A HISTORICAL ANALYSIS (second half of XX century)

Xushvaqt E. Norkuchkarov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 37-44.

[1] Bukhara State University, Bukhara, 705018, str. M.Iqbol, 11 (Uzbekistan). E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Keywords: Afghanistan, Afghan Uzbeks, national identity, Loyi Jirga, AHDP, AIT, AFIT, political parties and societies, religious fundamentalist parties, Revolutionary Council, AMIH.

Afghanistan is a region where many cultures and civilizations meet. For this reason, the country has a complex ethnic and ethnolinguistic character. According to information, more than 20 nationalities and ethnic groups live in Afghanistan. In particular, the number of Pashtuns, Tajiks, Uzbeks, and Hazaras is much larger than other ethnic groups. In the conditions of such ethnic diversity, each ethnic community took measures to preserve its national characteristics, to increase its influence in the country's management, to have permanent representatives in the government. This aspect is typical of the Uzbeks living in Afghanistan, whom we are studying today.

This article provides information about the role of representatives of the Uzbek nationality living in the country in the administrative structure of the Afghan government in the period from the 1950s to the 1990s. During this period, many ministers, governors, ambassadors, judges, soldiers who grew up among local and immigrant Afghan Uzbeks, as well as the processes of politicization as a result of the increase in their number in various political associations, parties and societies, as a result of the increase in their number in the structure of the High Representative bodies, were thoroughly analyzed. . In particular, members of the Supreme Representative Bodies (Loyi Jirga), members of the People's Democratic Party of Afghanistan and various political associations, such as Said Abdurahman Mahdum, Muhammad Tahir Badakhshi, Muhammad Hakim Sadiqi, Amonullah Astovar, Faizullah Alburs, who are politically active, Abdul Lawyers and ministers such as Hakim Sha'riy Juzhoniy and Muhammad Khan Jalal have grown up. Among them, Marshall Abdulrashid Dostim, the founder of the "Junbushi National" party, is certainly the most famous.

Although there is no separate research work in the Uzbek language dedicated to the issue of the participation of Uzbeks in the country's governance structure, we can partially find information about it in the works and studies of several scientists. For example, in the monograph on the history of Uzbeks abroad by Sh. Hayitov, an accomplished historian on the history of Uzbek emigration, orientalists Kh. we will see in the studies. This article reveals the essence of the topic using many methods characteristic of historical research, such as comparative analysis, statistical analysis, historicity, consistency, objectivity.

Referenses:

1. Alimova, H. (2020). Afg'oniston konstitutsiyalarida davlat tili maqomi [Status of the state language in the Constitutions of Afghanistan]. *'O'zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi'* [Uzbek oriental studies: today and tomorrow]. Collection of scientific articles. Tashkent. Pp. 22-29.

2. Shah, Irfan Ali (2017). *Afghan ethnic and social politics depicted in "The Kite Runner"*. A dissertation submitted to the University of Peshawar, Pakistan in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy. Area study Centre (Russia, China and Central Asia) University of Peshawar. Pakistan.

3. Hamidullah, Qeyam. (2012). *Etnicization of politcs in Afghanistan*. Presented to the Faculty of the Graduate School of The University of Texas at Arlington in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Sociology. Arlington: The University of Texas.

4. Hashimbekov, H. (1994). *Uzbeki Severnogo Afganistana* [Uzbeks of Northern Afghanistan]. Moscow: Institut vostokovedeniya RAN.

5. Ismailov, A., Tashkin, A. (2005). Afg‘onistondagi turkiy tillar vaziyatiga doir [About the situation of Turkic languages in Afghanistan]. *Sharq mash’ali.* 1. Pp. 12-16.

6. Hayitov, Sh.A. (2008). O‘zbek muhojirligi tarixi (1917-1991-yy.) [History of Uzbek emigration (1917-1991)]. Tashkent: Abu press consult.

7. Bosin, Y.V. (2002). Afganistan: *Polietnicheskoe obshchestvo i gosudarstvennaya vlast v istoricheskom kontekste* [Afghanistan: Multi-ethnic society and state power in historical context]. Moscow: Gumanitarij.

8. Abdullayev, K. (2009). *Ot Sinczyanya do Horasana. Iz istorii sredneaziatskoj emigracii XX veka* [From Xinjiang to Khorasan. From the history of Central Asian emigration of the twentieth century]. Dushanbe: Irfon.

9. Laletin, Y.P. (2000). *Resursnyj potencial Severnogo Afganistana, konsolidaciya etnicheskih menshinstv i ukreplenie elit v etom regione* [Resource potential of Northern Afghanistan, consolidation of ethnic minorities and strengthening of elites in this region]. Moscow.

10. Sharipov, U.Z., Hashimbekov, H. (2010). Istoricheskij i sovremennyj aspekty socialnogo i politicheskogo polozheniya afganskih uzbekov [Historical and modern aspects of the social and political situation of Afghan Uzbeks]. In: *Afganistan-2010. Politicheskie i ekonomicheskie realii sovremennogo Afganistana v usloviyah geostrategicheskoj ekspansii Zapada* [Afghanistan-2010. Political and economic realities of modern Afghanistan in the context of geostrategic expansion of the West]. Collection of articles. Moscow. Pp. 103-146.

11. (2020) Afg‘oniston Qahramoni, etnik o‘zbeklar yetakchisi va endilikda marshal. Abdulrashid Do‘stum kim? [Hero of Afghanistan, leader of ethnic Uzbeks and now Marshal. Who is Abdulrashid Dostum?]. [Online]. URL: https://kun.uz/uz/news/2020/05/24/afgoniston-qahramoni-etnik-ozbeklar-yetakchisi-va-endilikda-marshal-general-dostum-kim // [Date of Access: 30.04.2023].

Muallif haqida ma’lumot:

NORQO‘CHQAROV Xushvaqt Eshnazarovich – Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: xushvaqt.norqochqarov@mail.ru